TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2025-yil 14-oktabr

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
3-bosqich Maktabgacha ta'lim yo‘nalishi talabalariga 5-semestr uchun
« Ertak terapiyasi » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma-og‘zaki

Mavzu raqami	Mavzu	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi	4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi	5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi
1	ERTAK TERAPIYASINING NAZARIY ASOSLARI	Ertak terapiyasi tushunchasini izohlang va uning asosiy maqsadini yoritib bering. Tayanch so‘zlar: ertak terapiyasi, psixologik metod, tarbiya, korreksiya, rivojlanish.	Ertak terapiyasi fanining maktabgacha ta’lim tizimidagi ahamiyati nimadan iborat? Tayanch so‘zlar: maktabgacha ta’lim, bola shaxsi, ta’lim-tarbiya, psixologik yordam.	Ertak terapiyasining shakllanishi va rivojlanish tarixini bayon qiling. Tayanch so‘zlar: tarixiy bosqichlar, xalq og‘zaki ijodi, ilmiy tahlil, psixotexnika, kompleks yondashuv.	Ertak terapiyasining nazariy asoslarini shakllantirishga hissa qo‘shgan olimlar qarashlarini izohlang. Tayanch so‘zlar: L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin, B. Bettelxaym, K.G. Yung, V.Ya. Propp.	Ertak terapiyasining bolalar psixologiyasidagi o‘rnini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: bola psixikasi, ichki kechinmalar, hissiyot, tasavvur, xulq-atvor.
1	ERTAK TERAPIYASINING NAZARIY ASOSLARI	Ertak terapiyasining asosiy turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflang. Tayanch so‘zlar: didaktik, psixologik, psixokorreksion, meditativ, psixoterapevtik.	Ertak terapiyasida diagnostik, prognostik va terapevtik funksiyalar qanday namoyon bo’ladi? Tayanch so‘zlar: diagnostika, prognoz, terapevtik ta’sir, muammo, korreksiya.	Ertak terapiyasining bola hissiyoti va xulq-atvoriga ta’sir mexanizmlarini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: empatiya, identifikatsiya, emotsional boshqarish, qahramon, xulq-atvor.	Ertak terapiyasida K.I. Chukovskiyning gumanistik qarashlari qanday ahamiyatga ega? Tayanch so‘zlar: insoniylik, hamdardlik, empatiya, simpatiya, gumanistik qarash.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ertak terapiyasidan foydalanishning zarurati va imkoniyatlarini izohlang. Tayanch so‘zlar: tarbiyachi, maktabgacha ta’lim, psixologik muhit, ijtimoiy rivojlanish, tarbiyaviy ta’sir.
2	ERTAK TERAPIYASINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK VAZIFALARI	Ertak terapiyasining pedagogik ahamiyati va asosiy vazifalarini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: pedagogik vazifa, ta’lim, tarbiya, rivojlantirish, shaxs.	Ertak terapiyasi orqali bolalarda qanday axloqiy qadriyatlar shakllantiriladi? Tayanch so‘zlar: ezgulik, adolat, mehr-oqibat, halollik, mas’uliyat.	Ertak terapiyasining psixologik vazifalarini tavsiflang. Tayanch so‘zlar: qo‘rquv, xavotir, ichki konflikt, emotsional holat, psixologik yordam.	Ertak terapiyasining bolaning emotsional rivojlanishiga ta’sirini izohlang. Tayanch so‘zlar: hissiyot, emotsional barqarorlik, o‘zini anglash, empatiya, o‘zini boshqarish.	Ertak terapiyasi bolalarda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga qanday yordam beradi? Tayanch so‘zlar: muloqot, hamkorlik, do‘stlik, ijtimoiy ko‘nikma, o‘zaro hurmat.
2	ERTAK TERAPIYASINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK VAZIFALARI	Ertak terapiyasining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiring. Tayanch so‘zlar: tarbiya, rivojlanish, axloqiy sifat, kognitiv faoliyat, shaxs kamoloti.	Ertak terapiyasi yordamida bolalardagi salbiy xulq-atvorni yumshatish yo‘llarini bayon qiling. Tayanch so‘zlar: agressivlik, injiqlik, qo‘pollik, xulq-atvor, psixokorreksiya.	Ertak terapiyasining bolaning psixofizik muvozanatini saqlashdagi ahamiyatini izohlang. Tayanch so‘zlar: psixofizik muvozanat, ruhiy holat, tinchlanish, relaksatsiya, emotsional barqarorlik.	Ertak terapiyasi orqali bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlarini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: milliy qadriyat, urf-odat, an’ana, xalq ertaklari, ma’naviy tarbiya.	Ertak terapiyasining pedagogik va psixologik vazifalari bir-birini qanday to‘ldiradi? Tayanch so‘zlar: pedagogik ta’sir, psixologik ta’sir, tarbiya, korreksiya, rivojlanish.
3	ERTAK TERAPIYASI METODLARI VA USULLARI	Ertak terapiyasi metodi tushunchasini izohlang va uning mohiyatini ochib bering. Tayanch so‘zlar: metod, psixologik-pedagogik ta’sir, ertak, rivojlantirish, korreksiya.	Ertak terapiyasida metod va usul tushunchalari o‘rtasidagi farqni tushuntiring. Tayanch so‘zlar: metod, usul, faoliyat, texnika, amaliyot.	Ertak terapiyasida ertakni o‘qish va muhokama qilish usulining ahamiyatini bayon qiling. Tayanch so‘zlar: o‘qish, tinglash, muhokama, qahramon, xulosa.	Ertak aytib berish usulining bola rivojlanishiga ta’sirini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: hikoya qilish, intonatsiya, imo-ishora, ifodaviylik, tinglash.	Ertak qahramonlarining xarakterini o‘zgartirish usuli qanday amalga oshiriladi? Tayanch so‘zlar: qahramon, xarakter, munosabat, syujet, ijodiy fikrlash.
3	ERTAK TERAPIYASI METODLARI VA USULLARI	Ertak uchun rasmlar chizish usulining psixologik ahamiyatini izohlang. Tayanch so‘zlar: rasm, proyektiv metod, rang, his-tuyg‘u, tasavvur.	Ertakni teskari aytib berish usuli bolalarda qanday ko‘nikmalarni rivojlantiradi? Tayanch so‘zlar: teskari syujet, nuqtayi nazar, ijodkorlik, moslashuvchanlik, tahlil.	Ertak qahramonlari ustidan sud jarayonini tashkil etish usulining tarbiyaviy ahamiyatini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: rol o‘ynash, adolat, mas’uliyat, axloqiy baholash, qaror.	Ertak terapiyasining boshqa psixologik-pedagogik metodlar bilan integratsiyasini izohlang. Tayanch so‘zlar: o‘yin terapiyasi, san’at terapiyasi, dramaterapiya, integratsiya, korreksiya.	Ertak terapiyasida mutaxassisning vazifalari va kasbiy mas’uliyatini yoritib bering. Tayanch so‘zlar: mutaxassis, kuzatish, ertak tanlash, individual yondashuv, psixologik xavfsizlik.
4	BOLALAR UCHUN MOS ERTAKLARNI TANLASH MEZONLARI	Ertakning bolalar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyatini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: ertak, tarbiya, axloq, dunyoqarash, shaxs shakllanishi.	Bolalar psixologiyasi va ertak tanlash jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlang. Tayanch so‘zlar: yosh xususiyati, psixologik ehtiyoj, xarakter, qiziqish, individual yondashuv.	Yoshga mos ertaklarni tanlashda qanday mezonlarga e’tibor berish kerak? Tayanch so‘zlar: yosh, mazmun, syujet, qahramon, tushunarlilik.	Ertak tanlashda bolaning emotsional holatini hisobga olish nima uchun muhim? Tayanch so‘zlar: emotsional holat, qo‘rquv, xavotir, ruhiy ehtiyoj, psixologik xavfsizlik.	Ertaklarning tarbiyaviy va axloqiy yo‘nalishini belgilovchi omillarni bayon qiling. Tayanch so‘zlar: ezgulik, yovuzlik, adolat, halollik, axloqiy qadriyat.
4	BOLALAR UCHUN MOS ERTAKLARNI TANLASH MEZONLARI	Bolalar uchun ertak tanlashda psixologik xavfsizlik mezonining mohiyatini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: xavfsizlik, qo‘rqinchli obraz, salbiy ta’sir, emotsional ta’sir, yoshga moslik.	Ertak qahramonlarining xarakteri va syujet keskinligi tanlovga qanday ta’sir qiladi? Tayanch so‘zlar: qahramon, xarakter, syujet, ziddiyat, ta’sirchanlik.	N.L. Kryajevaning bolalarning psixologik xususiyatlariga mos ertak tanlash bo‘yicha tavsiyalarini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: psixologik xususiyat, individual farq, ertak tanlash, xarakter, korreksiya.	Turli yoshdagi bolalarning ertakni idrok etish xususiyatlarini tavsiflang. Tayanch so‘zlar: 1–1,5 yosh, 3 yosh, 3–5 yosh, idrok, takrorlash.	Ertak tanlashda bolaning muammosi va ehtiyojlarini aniqlashning ahamiyatini izohlang. Tayanch so‘zlar: ehtiyoj, muammo, kuzatish, diagnostika, moslashtirish.
5	O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI ORQALI BOLADA IJTIMOIY VA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH	O‘zbek xalq ertaklarining tarbiyaviy mohiyatini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, milliy meros, tarbiya, axloq, qadriyat.	O‘zbek xalq ertaklari orqali bolalarda qanday ijtimoiy qadriyatlar shakllanadi? Tayanch so‘zlar: do‘stlik, hamkorlik, mehr-oqibat, hurmat, jamoaviylik.	Ertaklarning axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi rolini izohlang. Tayanch so‘zlar: halollik, rostgo‘ylik, adolat, saxovat, vijdon.	O‘zbek xalq ertaklarida ezgulik va yovuzlik g‘oyasi qanday ifodalanadi? Tayanch so‘zlar: ezgulik, yovuzlik, ijobiy qahramon, salbiy qahramon, g‘alaba.	O‘zbek xalq ertaklarini pedagogik jarayonda qo‘llash metodikasini bayon qiling. Tayanch so‘zlar: ertak tanlash, hikoya qilish, muhokama, savol-javob, xulosa.
5	O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI ORQALI BOLADA IJTIMOIY VA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH	Ertaklar orqali bolalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish yo‘llarini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: kompetensiya, muloqot, hamkorlik, mas’uliyat, axloqiy xulq.	Ertak qahramonlarining xatti-harakatlari bolalarning axloqiy qarashlariga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Tayanch so‘zlar: qahramon, xatti-harakat, namuna, taqlid, axloqiy baho.	O‘zbek xalq ertaklarida mehnatsevarlik va sabr-toqat g‘oyalarining ifodalanishini izohlang. Tayanch so‘zlar: mehnatsevarlik, sabr, matonat, maqsad, muvaffaqiyat.	Ertaklar yordamida bolalarda kattalarga hurmat va kichiklarga izzat tuyg‘usini tarbiyalash usullarini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: hurmat, izzat, oila, odob, milliy qadriyat.	O‘zbek xalq ertaklaridan maktabgacha ta’lim mashg‘ulotlarida foydalanishning samarali yo‘llarini bayon qiling. Tayanch so‘zlar: mashg‘ulot, xalq ertagi, sahnalashtirish, suhbat, tarbiyaviy maqsad.
6	ROL O‘YINLARI VA DRAMATIZATSIYANING AHAMIYATI	Rol o‘yinlari tushunchasi va uning pedagogik mohiyatini izohlang. Tayanch so‘zlar: rol, o‘yin, obraz, faoliyat, pedagogik ta’sir.	Dramatizatsiya tushunchasini izohlang va uning bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini yoritib bering. Tayanch so‘zlar: dramatizatsiya, sahnalashtirish, qahramon, ijro, tarbiya.	Rol o‘yinlari orqali bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalari qanday rivojlantiriladi? Tayanch so‘zlar: ijtimoiylashuv, muloqot, hamkorlik, o‘zaro munosabat, jamoa.	Rol o‘yinlarining bolalar kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rnini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: nutq, muloqot, tinglash, fikr bildirish, dialog.	Dramatizatsiyaning bolalar ijodkorligi va nutqini rivojlantirishdagi ahamiyatini izohlang. Tayanch so‘zlar: ijodkorlik, nutq, ifodali o‘qish, tasavvur, sahna.
6	ROL O‘YINLARI VA DRAMATIZATSIYANING AHAMIYATI	Ertak qahramonlari rollarini taqsimlashda qanday pedagogik talablar hisobga olinadi? Tayanch so‘zlar: rol taqsimoti, yosh, qobiliyat, qiziqish, teng ishtirok.	Ertakni sahnalashtirish jarayonining asosiy bosqichlarini bayon qiling. Tayanch so‘zlar: ertak tanlash, rollar, tayyorgarlik, ijro, muhokama.	Rol o‘yinlari bolalarda empatiya va o‘zaro tushunishni qanday shakllantiradi? Tayanch so‘zlar: empatiya, qahramon, his-tuyg‘u, hamdardlik, munosabat.	Dramatizatsiya jarayonida tarbiyachining vazifalari nimalardan iborat? Tayanch so‘zlar: tashkil etish, yo‘naltirish, rag‘batlantirish, kuzatish, baholash.	Rol o‘yinlari va dramatizatsiyaning ertak terapiyasidagi o‘zaro bog‘liqligini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: ertak terapiyasi, rol, sahnalashtirish, psixologik ta’sir, rivojlanish.
7	ERTAK TERAPIYASINING INDIVIDUAL VA GURUH MASHG‘ULOTLARIDA QO‘LLANILISHI	Ertak terapiyasining individual mashg‘ulotlarda qo‘llanilish xususiyatlarini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: individual yondashuv, bola, ehtiyoj, psixologik holat, mashg‘ulot.	Ertak terapiyasining guruh mashg‘ulotlarida qo‘llanilish mohiyatini bayon qiling. Tayanch so‘zlar: guruh, hamkorlik, muloqot, jamoa, ijtimoiy ko‘nikma.	Individual ertak terapiyasi mashg‘ulotlarini tashkil etish bosqichlarini izohlang. Tayanch so‘zlar: diagnostika, maqsad, ertak tanlash, faoliyat, tahlil.	Guruh mashg‘ulotlarida ertak terapiyasidan foydalanishning afzalliklari nimalardan iborat? Tayanch so‘zlar: jamoaviy faoliyat, hamkorlik, fikr almashish, empatiya, muloqot.	Individual va guruh mashg‘ulotlarining o‘zaro farqlarini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: individual, guruh, ehtiyoj, ishtirokchi, psixologik ta’sir.
7	ERTAK TERAPIYASINING INDIVIDUAL VA GURUH MASHG‘ULOTLARIDA QO‘LLANILISHI	Ertak terapiyasi mashg‘ulotlarining maqsad va vazifalari qanday belgilanadi? Tayanch so‘zlar: maqsad, vazifa, rivojlanish, korreksiya, profilaktika.	Ertak terapiyasida bolaning psixologik xususiyatlarini hisobga olish nima uchun muhim? Tayanch so‘zlar: xarakter, yosh, ehtiyoj, emotsional holat, individual farq.	Guruh mashg‘ulotlarida bolalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish usullarini bayon qiling. Tayanch so‘zlar: jamoaviy topshiriq, rol taqsimoti, o‘zaro yordam, muloqot, hamkorlik.	Ertak terapiyasi mashg‘ulotlarida psixologik xavfsiz muhit yaratish yo‘llarini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: ishonch, hurmat, erkin fikr, bosimsiz muloqot, xavfsizlik.	Individual va guruh ertak terapiyasi mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish omillarini izohlang. Tayanch so‘zlar: rejalashtirish, moslashtirish, mutaxassis, ishtirok, natija.
8	BOLALARDA ERTAK ORQALI EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH	Emotsional intellekt tushunchasini izohlang va uning bolalar rivojlanishidagi ahamiyatini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: emotsional intellekt, hissiyot, anglash, boshqarish, rivojlanish.	Ertakning bolalar emotsional rivojlanishidagi psixologik va pedagogik imkoniyatlarini bayon qiling. Tayanch so‘zlar: ertak, emotsiya, psixologik ta’sir, pedagogik imkoniyat, tarbiya.	Ertak orqali bolalarda emotsiyalarni tanish va nomlash ko‘nikmasi qanday shakllantiriladi? Tayanch so‘zlar: quvonch, qayg‘u, qo‘rquv, g‘azab, emotsiyani nomlash.	Ertak qahramonlarining his-tuyg‘ularini tahlil qilish bolaga qanday yordam beradi? Tayanch so‘zlar: qahramon, hissiyot, tahlil, empatiya, o‘zini anglash.	Ertak terapiyasi yordamida bolalarda emotsional o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llarini tushuntiring. Tayanch so‘zlar: o‘zini boshqarish, tinchlanish, hissiyot, nazorat, barqarorlik.
8	BOLALARDA ERTAK ORQALI EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH	Ertaklar orqali bolalarda empatiya qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlarini izohlang. Tayanch so‘zlar: empatiya, hamdardlik, qahramon, identifikatsiya, munosabat.	Ertak terapiyasining bolalardagi qo‘rquv va xavotirni kamaytirishdagi ahamiyatini bayon qiling. Tayanch so‘zlar: qo‘rquv, xavotir, psixologik yordam, qahramon, ijobiy yakun.	Ertak tinglash va muhokama qilish jarayoni bolaning hissiy dunyosiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Tayanch so‘zlar: tinglash, muhokama, hissiy idrok, fikrlash, ifodalash.	Ertak terapiyasida bolaning o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifodalashi uchun qanday sharoit yaratiladi? Tayanch so‘zlar: erkinlik, ishonch, suhbat, rasm, psixologik muhit.	Emotsional intellektni rivojlantirishda ertak terapiyasining samaradorligini izohlang. Tayanch so‘zlar: emotsional savodxonlik, empatiya, o‘zini anglash, boshqarish, ijtimoiy munosabat.

9	ERTAK TERAPIYASI VA TIL RIVOJLANISHI	Tasavvur tushunchasini izohlang va ertak terapiyasining uni rivojlantirishdagi rolini yoritib bering. Tayanch so'zlar: tasavvur, obraz, xayol, ertak, ijodiy faoliyat.	Ertak terapiyasi orqali bolalarda ijodkorlikni rag'batlantirish usullarini bayon qiling. Tayanch so'zlar: ijodkorlik, mustaqil ertak, yangi syujet, obraz, fantaziya.	Ertaklardagi ramziy obrazlar bolalarning ichki muammolarini ifodalashga qanday yordam beradi? Tayanch so'zlar: ramz, obraz, ichki kechinma, muammo, metafora.	Bolalarning mustaqil ertak yaratishi qanday rivojlantiruvchi imkoniyatlarga ega? Tayanch so'zlar: mustaqil ijod, syujet, qahramon, tasavvur, nutq.	Ertak terapiyasi orqali bolalarda muammolarni ramziy tarzda ifodalash jarayonini tushuntiring. Tayanch so'zlar: ramziy ifoda, qahramon, konflikt, his-tuyg'u, yechim.
9	ERTAK TERAPIYASI VA TIL RIVOJLANISHI	Ertak asosida rasm chizish va ijodiy topshiriqlarning ahamiyatini izohlang. Tayanch so'zlar: rasm, rang, tasvir, ijodiy topshiriq, emotsiya.	Ertak terapiyasining nutq va hikoya qilish qobiliyatini rivojlantirishdagi o'rnini bayon qiling. Tayanch so'zlar: hikoya, izchillik, so'z boyligi, ifodali nutq, tasavvur.	Ertak terapiyasining bolalarning estetik rivojlanishiga ta'sirini tushuntiring. Tayanch so'zlar: estetik idrok, go'zallik, obraz, badiiy ifoda, did.	Ijodiy ertak mashg'ulotlarida tarbiyachining rag'batlantiruvchi roli qanday namoyon bo'ladi? Tayanch so'zlar: rag'bat, qo'llab-quvvatlash, mustaqillik, ijod, erkin fikr.	Ertak terapiyasi yordamida bolalarning muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topish ko'nikmasini rivojlantirish yo'llarini izohlang. Tayanch so'zlar: muammo, yechim, ijodiy fikrlash, muqobil yo'l, qaror.
10	ERTAK TERAPIYASI VA TIL RIVOJLANISHI	Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini tushuntiring. Tayanch so'zlar: til, ijtimoiy hodisa, jamiyat, muloqot, aloqa.	Psixologiyada til va nutq tushunchalarining o'zaro farqini izohlang. Tayanch so'zlar: til, nutq, tafakkur, muloqot, psixologiya.	Bolaning nutq rivojlanishidagi to'rt bosqichni tavsiflang. Tayanch so'zlar: nutq rivoji, bosqich, yosh, lug'at, kommunikatsiya.	Ertak terapiyasining bolalar til rivojlanishidagi ahamiyatini tushuntiring. Tayanch so'zlar: ertak, til, so'z boyligi, nutq, rivojlanish.	Ertak tinglash bolalarning lug'at boyligini oshirishga qanday yordam beradi? Tayanch so'zlar: tinglash, yangi so'zlar, lug'at, ibora, tushunish.
10	ERTAK TERAPIYASI VA TIL RIVOJLANISHI	Ertakni qayta hikoya qilish jarayonining nutq rivojiga ta'sirini izohlang. Tayanch so'zlar: qayta hikoya, izchillik, xotira, so'z boyligi, ifodali nutq.	Ertak terapiyasida savol-javob va dialog usullarining ahamiyatini bayon qiling. Tayanch so'zlar: savol-javob, dialog, muloqot, fikr, nutqiy faollik.	Ertak terapiyasi orqali bolalarda grammatik va fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llarini tushuntiring. Tayanch so'zlar: grammatika, fonetika, talaffuz, gap tuzish, nutq.	Ertakni sahnalashtirishning bolalar kommunikativ kompetensiyasiga ta'sirini izohlang. Tayanch so'zlar: sahnalashtirish, dialog, talaffuz, muloqot, kommunikativ kompetensiya.	Ertak terapiyasining maktabgacha ta'limda nutq rivojlantiruvchi metod sifatidagi imkoniyatlarini bayon qiling. Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, til rivoji, tinglash, hikoya qilish, nutqiy kompetensiya.
11	ERTAKLARDA KONFLIKTLAR VA ULARNI HAL ETISH USULLARI	Konflikt tushunchasini izohlang va uning ertaklardagi o'rnini tushuntiring. Tayanch so'zlar: konflikt, ziddiyat, qahramon, syujet, muammo.	Ertaklarda uchraydigan asosiy konflikt turlarini tavsiflang. Tayanch so'zlar: ichki konflikt, tashqi konflikt, shaxslararo ziddiyat, ijtimoiy ziddiyat, qarama-qarshilik.	Ertaklarda konfliktlarni hal etish usullarini bayon qiling. Tayanch so'zlar: murosa, hamkorlik, yordam, muloqot, yechim.	Ertaklardagi konfliktlarning tarbiyaviy ahamiyati nimadan iborat? Tayanch so'zlar: tarbiya, saboq, axloqiy xulosa, mas'uliyat, tajriba.	Ertak qahramonlarining ziddiyatli vaziyatlarda tutgan o'rni va xatti-harakatlarini tahlil qiling. Tayanch so'zlar: qahramon, qaror, xatti-harakat, ziddiyat, natija.
11	ERTAKLARDA KONFLIKTLAR VA ULARNI HAL ETISH USULLARI	Ertaklarda muammolarni tinch yo'l bilan hal etish g'oyasi qanday ifodalanadi? Tayanch so'zlar: tinchlik, murosa, kelishuv, muloqot, hamkorlik.	Ertak terapiyasi orqali bolalarda konfliktli vaziyatlarni anglash ko'nikmasi qanday shakllantiriladi? Tayanch so'zlar: anglash, vaziyat, tahlil, his-tuyg'u, xulosa.	Ertaklardagi ijobiy yakunlarning bola psixologiyasiga ta'sirini tushuntiring. Tayanch so'zlar: ijobiy yakun, umid, ishonch, xavfsizlik, emotsional yengillik.	Pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan ertak konfliktlarini tahlil qilishning ahamiyatini izohlang. Tayanch so'zlar: pedagogik tahlil, psixologik tahlil, konflikt, xulq-atvor, korreksiya.	Ertaklar asosida bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish yo'llarini bayon qiling. Tayanch so'zlar: mustaqillik, muammo, qaror, yechim, hayotiy ko'nikma.
12	ERTAKLARDA BOSH QAHRAMONLARNING PSIXOLOGIK TAHLILI	Ertak qahramonining boshlang'ich holati tushunchasini izohlang. Tayanch so'zlar: bosh qahramon, boshlang'ich holat, xarakter, ehtiyoj, muhit.	Ertak qahramonining ichki konfliktini tushuntiring. Tayanch so'zlar: ichki ziddiyat, qo'rquv, istak, ikkilanish, kechinma.	Ertak qahramonining tashqi konfliktini tavsiflang. Tayanch so'zlar: tashqi ziddiyat, raqib, to'siq, muhit, kurash.	Ertaklarda yordamchilar obrazining psixologik va tarbiyaviy vazifalarini izohlang. Tayanch so'zlar: yordamchi, qo'llab-quvvatlash, maslahat, hamkorlik, yechim.	Ertaklardagi ramzlarning psixologik mazmunini tushuntiring. Tayanch so'zlar: ramz, obraz, metafora, ichki kechinma, ma'no.
12	ERTAKLARDA BOSH QAHRAMONLARNING PSIXOLOGIK TAHLILI	Arxetip tushunchasini izohlang va uning ertak qahramonlarini tahlil qilishdagi ahamiyatini bayon qiling. Tayanch so'zlar: arxetip, K.G. Yung, kollektiv ongsizlik, ramz, qahramon.	Ertak qahramonining xarakteri va xatti-harakatlarini psixologik tahlil qilish usullarini tushuntiring. Tayanch so'zlar: xarakter, xulq-atvor, motiv, emotsiya, psixologik tahlil.	Milliy ertaklarda qahramonlarning psixologik xususiyatlari qanday namoyon bo'ladi? Tayanch so'zlar: milliy ertak, qahramon, qadriyat, xarakter, xalqona obraz.	Ertak qahramonining o'zgarishi va rivojlanish jarayonini tahlil qiling. Tayanch so'zlar: o'zgarish, rivojlanish, sinov, tajriba, xulosa.	Ertak qahramonlarini psixologik tahlil qilishning ertak terapiyasidagi ahamiyatini izohlang. Tayanch so'zlar: diagnostika, identifikatsiya, proyeksiya, qahramon, psixologik ta'sir.
13	ERTAK TERAPIYASIDA OTA-ONA VA PEDAGOGLARNING ROLI	Ertak terapiyasi tushunchasi va uning oilaviy tarbiyadagi ahamiyatini tushuntiring. Tayanch so'zlar: ertak terapiyasi, oila, tarbiya, bola, psixologik rivojlanish.	Ertak terapiyasida ota-onaning asosiy vazifalari nimalardan iborat? Tayanch so'zlar: ota-ona, ertak aytish, tinglash, muloqot, qo'llab-quvvatlash.	Ota-onalarning ertak aytib berishi va kitobdan o'qib berishi o'rtasidagi farqlarni izohlang. Tayanch so'zlar: ertak aytish, o'qib berish, jonli muloqot, emotsional aloqa, intonatsiya.	Pedagoglarning ertak terapiyasidagi vazifalarini bayon qiling. Tayanch so'zlar: pedagog, tarbiyachi, ertak tanlash, mashg'ulot, kuzatish.	Ota-ona va pedagog hamkorligining ertak terapiyasidagi samaradorligini tushuntiring. Tayanch so'zlar: hamkorlik, oila, ta'lim tashkiloti, uzviylik, tarbiyaviy ta'sir.
13	ERTAK TERAPIYASIDA OTA-ONA VA PEDAGOGLARNING ROLI	Ota-onalar uchun ertak tanlashda qanday amaliy tavsiyalar beriladi? Tayanch so'zlar: yosh, qiziqish, mazmun, psixologik ehtiyoj, ertak tanlash.	Ertak terapiyasida bolaning savollariga e'tibor bilan munosabatda bo'lish nima uchun muhim? Tayanch so'zlar: savol, tinglash, ishonch, fikrlash, muloqot.	Ota-onalar ertak orqali bolalarda qanday axloqiy sifatlarni shakllantirishlari mumkin? Tayanch so'zlar: mehribonlik, halollik, adolat, saxovat, mas'uliyat.	Ertak terapiyasini oilada muntazam qo'llashning afzalliklarini izohlang. Tayanch so'zlar: muntazamlik, emotsional aloqa, oilaviy muhit, tarbiya, ishonch.	Ertak terapiyasini tashkil etishda ota-ona va pedagoglar uchun muhim bo'lgan uslubiy tavsiyalarni bayon qiling. Tayanch so'zlar: individual yondashuv, yoshga moslik, xavfsiz muhit, hamkorlik, kuzatish.
14	ERTAK TERAPIYASI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI	Ertak terapiyasi samaradorligini baholash zarurati va uning mazmunini tushuntiring. Tayanch so'zlar: samaradorlik, baholash, natija, mezon, tahlil.	Ertak terapiyasi natijasida bolalarda yuz beradigan psixologik-emotsional o'zgarishlarni tavsiflang. Tayanch so'zlar: emotsional holat, qo'rquv, xavotir, barqarorlik, o'zini boshqarish.	Ertak terapiyasi samaradorligini aniqlashda ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari qanday hisobga olinadi? Tayanch so'zlar: ijtimoiy ko'nikma, muloqot, hamkorlik, empatiya, moslashuv.	Ertak terapiyasi natijasida bolalarning xulq-atvorida yuz beradigan o'zgarishlarni tushuntiring. Tayanch so'zlar: xulq-atvor, agressivlik, intizom, ijobiy munosabat, o'zgarish.	Ertak terapiyasining kognitiv rivojlanishga ta'siri qaysi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi? Tayanch so'zlar: tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur, idrok.
14	ERTAK TERAPIYASI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI	Ertak terapiyasi samaradorligini baholashda kuzatish metodining ahamiyatini izohlang. Tayanch so'zlar: kuzatish, xulq, emotsiya, qayd etish, tahlil.	Ertak terapiyasi jarayonida monitoring olib borishning maqsadi va vazifalarini bayon qiling. Tayanch so'zlar: monitoring, muntazam kuzatish, o'zgarish, natija, nazorat.	Ertak terapiyasining dastlabki va yakuniy natijalarini taqqoslash nima uchun muhim? Tayanch so'zlar: boshlang'ich holat, yakuniy natija, taqqoslash, dinamika, samaradorlik.	Ertak terapiyasi natijalarini tahlil qilish va xulosa chiqarish tartibini tushuntiring. Tayanch so'zlar: ma'lumot, tahlil, mezon, xulosa, tavsiya.	Ertak terapiyasi samaradorligini baholashda ota-ona va pedagoglarning fikr-mulohazalari qanday ahamiyatga ega? Tayanch so'zlar: ota-ona, pedagog, fikr-mulohaza, kuzatish, natija.
15	ZAMONAVIY ERTAK TERAPIYASI TEXNOLOGIYALARI VA RESURSLARI	Zamonaviy ertak terapiyasi tushunchasini izohlang va uning rivojlanish tendensiyalarini bayon qiling. Tayanch so'zlar: zamonaviy yondashuv, texnologiya, innovatsiya, rivojlanish, psixologik metod.	Raqamli texnologiyalar asosida ertak terapiyasini tashkil etish imkoniyatlarini tushuntiring. Tayanch so'zlar: raqamli texnologiya, elektron ertak, multimedia, interaktivlik, ta'lim.	Ertak terapiyasida interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklarini izohlang. Tayanch so'zlar: interfaol metod, faollik, hamkorlik, muloqot, ijodkorlik.	Zamonaviy ertak terapiyasida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini tushuntiring. Tayanch so'zlar: innovatsiya, yangi metod, ijodiy faoliyat, texnologiya, samaradorlik.	Ertak terapiyasida foydalaniladigan asosiy resurslarni tavsiflang. Tayanch so'zlar: ertak kitoblari, audio material, video, rasmlar, didaktik vosita.
15	ZAMONAVIY ERTAK TERAPIYASI TEXNOLOGIYALARI VA RESURSLARI	Elektron va audio ertaklardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini bayon qiling. Tayanch so'zlar: elektron ertak, audio ertak, tinglash, idrok, multimedia.	Raqamli ertak materiallarini tanlashda bolaning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish nima uchun muhim? Tayanch so'zlar: yosh, psixologik xususiyat, mazmun, xavfsizlik, moslik.	Zamonaviy ertak terapiyasida interaktiv hikoyalardan foydalanish yo'llarini tushuntiring. Tayanch so'zlar: interaktiv hikoya, tanlov, syujet, ishtirok, mustaqil qaror.	Ertak terapiyasida raqamli resurslardan foydalanishning imkoniyatlari va cheklovlarini izohlang. Tayanch so'zlar: raqamli resurs, imkoniyat, cheklov, ekran vaqti, pedagogik nazorat.	Zamonaviy texnologiyalarni ertak terapiyasiga tatbiq etishda pedagogning vazifalarini bayon qiling. Tayanch so'zlar: pedagog, texnologiya, resurs tanlash, nazorat, samaradorlik.